

MILLIY KORPUS TARAQQIYOTI HAQIDA

Eshqulova Nilufar O'ktamovna

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16994463>

Annotatsiya: Ushbu maqolada korpus, milliy korpus taraqqiyoti, o'rganilishi, tilshunoslikdagi ahamiyati haqida umumiy mulohazalar bildirilgan. Mazkur sohada tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlari tadqiq etilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: korpus, kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, tahlil, xulosa.

Аннотация

В статье дается общее мнение о корпусе, развитии национального корпуса, его изучении и его значении в языкознании. Были изучены научные изыскания лингвистов, проводивших исследования в этой области и сделаны убедительные выводы.

Ключевые слова: корпус, компьютерная лингвистика, национальный корпус, анализ, резюме.

Annotatsion

This article a general opinion is expressed about the corpus, the development of the national corpus, its study and its importance in linguistics. Scientific researches of linguists who conducted research in this field were studied and conclusive conclusions were drawn.

Keywords: corpus, computer linguistics, national corpus, analysis, conclusion.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham, jahon tilshunosligida ham til korpusi tez rivojlanayotgan sohalardan biri sanaladi. Shu boisdan milliy til korpusini yaratish tilshunos olimlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan tuziladi va bu ilmiy tadqiqotlar til o'rganish uchun xizmat qiladi.

Korpus lotincha so'z bo'lib, "tana" degan ma'noni anglatadi. "Korpus so'z, so'z birikmasi, Grammatik shakllarni, so'z ma'nosini muayyan qidiruv tizimi orqali topishni anglatuvchi elektron ko'rinishidagi matnlar jamlanmasidir" [2].

Milliy korpus til taraqqiyotining ma'lum bir davridagixususiyatlari, hududiy va sotsial variantlari – barcha jihatlarini qamragan holda namoyon etadi. Milliy korpus milliy til hajmini aniqlashda, adabiy til va sheva munosabatini ta'minlashda, so'z boyligini belgilashda ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Milliy korpus lingvodidaktikada muhim o'rin tutadi. Milliy korpuslar axborot asrida til asoslarini o'zlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Milliy korpusda tilning lug'aviy qatlamisbatan to'liq aks etadi. Ayniqsa, milliy tilni ona tili sifatida o'qitishda, tilning kommunikativ, emotsional-ekspressev, akkumulyativ funksiyalarining namoyon bo'lishida milliy korpus –ken-g imkoniyat yaratadi.

O'zbek tilshunosligida yaratilgan Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni konkordansi lug'ati milliy korpusni shakllantirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Shuningdek, mumtoz adabiyot manbalari konkordanslarining yaratilayotgani kompyuter leksikografiyasini takomillashtirish bilan bir qatorda ajdodlarimiz ma'naviyati, ma'rifiy-axloqiy qarashlarining bugungi avlodga yetkazilishida, o'zbek tili tarixiy asoslarini, tarixiy so'zlar, arxaizmlar fondini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrning boshlarida o'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi yuzasidan monografik tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, N.Abdurahmonovanning "Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti", M.X.Hakimov rahbarligida

“Tarjimon L-MX” sistemasi uchun bajarilgan tadqiqot, M.Abjalova “O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari [rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar tahriri dasturi uchun]” kabilar.

Tilshunosligimizda kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, statistik tahlil masalalariga doir izlanishlarda korpus lingvistikasiga ham to‘xtab o‘tilgan. Korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda monografik shaklda o‘rganila boshlandi. Bunga misol qilib, M.Sh.Hamroyevaning “Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati”ni olishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur olimaning “O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorligi uchun yozilgan dissertatsiyani aytib o‘tishimiz mumkin. Mazkur dissertatsiyada olima korpus tuzishning umumiy tamoyillari: korpusni loyihalash va tuzish bosqichining texnologik jarayonini o‘rganib chiqdi. Korpus menejerining o‘ziga xos xususiyati va uning turlarini tavsiflab berdi. A.Eshmo‘minov o‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasini shakllantirishga oid ilmiy izlanish olib bordi. Unda olima ma‘nodosh so‘zlar bazasini tuzishda semantik razmetkaning tasnifiy o‘rnini ochib berdi.

Milliy korpus, avvalo, tilning leksika va grammatikasi yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun zarur. Shu bilan birgalikda, bir necha yuz yilliklar davomida tilda yuz berdigan uzluksiz o‘zgarishlar, jarayonlarni kuzatish imkonini beradi. Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma‘lumotlarni olish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari vasitalarida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqirlashtirishga xizmat qilishdan iborat.

Milliy korpusning o‘ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, u me‘yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu korpus ma‘lum tilda berilgan [turli badiiy janrlar: publisistik, o‘quv, ilmiy, ish yuritish, so‘zlashuv, shevaviy kabi], ularning barchasi imkon darajasida ma‘lum doiraga oid ma‘lumotlarning proporsional matnlari hisoblanadigan og‘zaki va yozma ko‘rinishlarining barchasini o‘z qamroviga oladi degani. Korpusning qoniqarli darajadabo‘lishi uchun uning ko‘lamiga e‘tibor qaratish kerakligini nazardan chetdan qoldirmaslik kerak. Ikkinchidan, korpus unga kiritilayotgan matnlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida muhim qo‘shimcha ma‘lumotlarni saqlaydi [bular annotatsiya yoki kiritma ko‘rinishidagi matnlardir]. Kiritma – korpusning asosiy bosh ma‘lumotnomasi bo‘lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan oddiy matnlar to‘plamidan ajratib turadigan, masalan, bir muncha mashhur bo‘lgan “Maksim Morshkov kutubxonasi” yoki “Rus virtual kutubxonasi” kabilardan farqlanadigan matnlardir. Hozirgi vaqtda mutaxassislar tomonidan “Fundamental elektron kutubxona” yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyot namunalari bilan to‘ldirib borilmoqda. Unga muntazam tarzda va yuqori aniqlikda nashr etilayotgan adabiy matnlar kiritilib turadi. Biroq bu kabi kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda bir muncha chegaralangandir.

Milliy korpuslar milliy va chet tillarni o‘qitish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadiki, ko‘pgina darslik va o‘quv rejalari hozirda milliy korpusga moslangan bo‘lishi kerak. Korpus ko‘magida taniqli mualliflarning notanish so‘z yoki grammatik shakllarini ajnabiy ham, maktab o‘quvchisi ham, o‘qituvchi ham, jurnalist ham, redactor yoki yozuvchi ham tez va oson tekshirib olishi mumkin bo‘ladi.

Demak, milliy korpus kasbidan, foydalanuvchilarning millatidan qat’i nazar, o‘rganuvchilar uchun birdek foydalanish imkonini beradi.

References:**Используемая Литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eshmo'minov A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi: Filol. fan.f.d.diss.avtoref. – Qarshi, 2019.
2. Hamroyeva Sh.M. Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug'ati. – T.: Kamalak.
3. Hamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.f. bo'yicha f.d.diss.avtoref.- Qarshi, 2018.
4. [http: //ruscorpora.ru](http://ruscorpora.ru)